## FALSAFA

**Po‘latov Anvar Akmalovich (O‘zMU “Falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: polatoffanvar@gmail.com)**

# POSTMODERNIZM VA REALLIK DEKONSTRUKSIYASI

***Annotatsiya.*** *Maqolada postmodernizmning inson tafakkuri, haqiqat tushunchasi va mafkuraviy transformatsiyalarga ta’siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ppostmodern sharoitda realizm va reallik muammosi markaziy masalalardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. M.Fukoning tarixiy yondashuvi asosida epistemologik maydon hamda turli tarixiy epistemelar tushunchasi tahlil qilinadi. Fuko uchun asosiy masala reallik nima? degan savol emas, balki fan va bilimning imkoniyat shartlari tarixiy jihatdan qanday shakllangan? degan savol ekanligi ochib beriladi. Shu sababli reallik masalasi vaqtincha chetga surilib, asosiy e’tibor bilimning tarixiy va diskursiv shakllanish jarayoniga qaratiladi. Tadqiqotda postmodernizm insonning haqiqatni mustaqil ravishda belgilashga nafaqat aqlan qodir, balki bunga haqli ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari surishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, an’anaviy jamiyatlarda haqiqat avlodlar tomonidan umumiy qabul qilingan, qat’iy belgilangan va universallikka ega hodisa sifatida talqin qilinganligi falsafiy jihatdan yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *postmodernizm, modernism,reallik, realizm, dekostruksiya.*

**Пулатов Анвар Акмалович (Преподаватель кафедры философии НУУз; e-mail: polatoffanvar@gmail.com)**

# ПОСТМОДЕРНИЗМ И ДЕКОНСТРУКЦИЯ РЕАЛЬНОСТИ

***Аннотация.*** *В статье социально-философски анализируется влияние постмодернизма на человеческое мышление, понятие истины и трансформацию идеологий. В условиях постмодерна проблема реализма и реальности рассматривается как одна из центральных тем. На основе исторического подхода Мишеля Фуко анализируются понятия эпистемологического поля» и различных исторических эпистем. Для Фуко основным вопросом является не что такое реальность? А каким образом исторически сформировались условия возможности науки и знания? Поэтому проблема реальности временно отодвигается на второй план, а основное внимание сосредотачивается на историческом и дискурсивном процессе формирования знания. В исследовании анализируется идея постмодернизма о том, что человек не только интеллектуально способен самостоятельно определять истину, но и имеет на это право. Вместе с тем философски рассматривается то, что в традиционных обществах истина понималась как общепринятый и строго определённый феномен, передаваемый из поколения в поколение.*

***Ключевые слова:*** *постмодернизм, модернизм ,реальность, реализм, деконструкция.*

**Polatov Anvar Akmalovich (Lecturer at the Department of Philosophy, National University of Uzbekistan; e-mail: polatoffanvar@gmail.com)**

# POSTMODERNISM AND THE DECONSTRUCTION OF REALITY

***Annotation.*** *The article socio-philosophically analyzes the influence of postmodernism on human thought, the concept of truth, and the transformation of ideologies. In the context of postmodernity, the problem of realism and reality is considered one of the central issues. Based on Michel Foucault’s historical approach, the concepts of the epistemological field and various historical epistemes are analyzed. For Foucault, the main question is not What is reality?, but rather “How have the conditions of possibility for science and knowledge been historically constructed?” Therefore, the question of reality is temporarily bracketed, while the main focus is directed toward the historical and discursive formation of knowledge. The study also examines the postmodernist idea that human beings are not only intellectually capable of determining truth independently, but also possess the right to do so. At the same time, it is philosophically emphasized that in traditional societies truth was understood as a universally accepted and strictly defined phenomenon transmitted across generations.*

***Keywords:*** *Postmodernism, modernism, reality, realism, deconstruction.*

**Kirish.** Bugungi kunda postmodern dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarning sababiyatini va keltirib chiqaradigan oqibatlari haqida gap ketganda, avvalombor, tarixiy yondashuv orqali, eng avvalo, epistemologik maydonni, ya’ni, turli tarixiy jarayonlarni epistemologiyasini anglash zarur. Postmodern dunyoda mafkuralarning maqsadi bilimni referensiya, ratsional qiymat yoki obyektiv shakllar mezonidan mustaqil holda qanday tushunilganini ko‘rsatishdir. Shu sababli asosiy masala reallik nima? degan savol emas, balki fan va bilimning imkoniyat shartlari tarixiy jihatdan qanday qurilgan? degan savolga javob topsish zarurdir. Zamonaviy dunyoda reallik masalasi vaqtincha ontologik mohiyati chetga suriladi surila-

di, chunki asosiy e'tibor bilimning tarixiy shakllanishiga qaratiladi. Mazkur epistemologik loyihaning xavfi ham mavjud ya'ni; tarixiy va ijtimoiy omillarga haddan tashqari urg'u berish insonni skeptik tushkunlikka olib kelishi mumkin. Bunday holatda dunyoning real strukturalari til strukturalari ichida yo'qolib ketadi yoki inson ongining hamda ushbu ongni shakllantiruvchi sotsiologik va epistemologik sharoitlarning mahsuliga aylantiriladi. Agar postmodern holatni tavsiflovchi aniq tushuntirish mavjud bo'lsa, u shundan iboratki, tasavvuriy va simvolik, ayniqsa, lingvistik strukturalar shu qadar dominantlashadiki, ya'ni, barcha reallik til va diskurs bilan to'liq belgilansa, inson faqat mavjud tartibni buzish yoki unga qarshi chiqish orqali harakat qilishi mumkin bo'ladi. Shu sababli Lyotard metafizik neytrallik g'oyasini tanqid qiladi [1; 141-b.]. Chunki metafizikadan butunlay voz kechish yoki neytral qolishga urinish amalda yashirin metafizikani qabul qilishni anglatadi. Jan Pol Sartrga ko'ra, har qanday tartib qotib qolishi bilan darhol tanqid qilinishi va yangilanishi kerak. Biroq bundan ham muhimrog'i dunyoni qanday bo'lsa shunday, holatda qabul qilishdir. Shu sababli haqiqiy postmodern falsafa doimiy revolyutsiya, ya'ni realga uzluksiz qaytish harakati sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bu qaytish hech qanday kafolat va yakuniy ishonch bermaydi. Sartrning yana bir mashxur iborasi eski dunyo o'lmoqda, yangi dunyo esa hali tug'ila olmayapti degan gapi ham diqqatga sazovordir va shu fikr orqali postmodern sharoitdagi realizm inqirozini ifodalaydi [2;95-b.]. Bunday vaziyatda reallikka yangi ma'nolar, yangi tushunchalar, yangi qoidalar va yangi iboralar zarur bo'ladi. Chunki real haqida gapirish imkonini beruvchi yangi kontekst va yangi tilni yaratish kerak. Shu sababli postmodernlikning tugallanmagan loyihasi modernlikning soyalariga shunchaki reaksiya bo'lmagan, balki haqiqiy postmodern realizm va realizm tilini yaratish bo'lib kelgan. Natijada postmodernizm va realismning birlashuvi shuni anglatadiki, inson faqat hozirgi zamon ichidagi murakkab va ziddiyatli reallik bilan og'ir kurash orqali yashashi mumkin. Tafakkur o'zining sof holatini anglagan holda, murakkab va chigal reallikni tushunishga urinib, doimiy skeptic harakat ichida qolad.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Reallikning dekonstruktiv talqini borasida Fridrix Nitshe til va metafora haqidagi tahlilini ilm-fan va sababiyat qonunlari masalasiga ham tatbiq etadi. Uning fikricha, fan tabiat qonunlarini mangu va mutlaq uyg'unlikka ega deb qabul qiladi [3;211-b.].Tabiat qonunlari go'yoki mantiq va ratsionallik qonunlari kabi zarur va mantiqli ko'rinadi. Nitshe uchun inson aqli doimo real dunyoning qattiq tartibidan qochishga moyil. Shu sababli ba'zan konseptual tuzilmalarning o'zi ham xaosga tashlanadi va taqiqlangan metaforalar hamda noodatiy kombinatsiyalar orqali yangi ma'nolar yaratiladi.

G.Deluzaning borliqning uiversalligi haqidagi qarashi uning falsafasida relativizm masalasini eng aniq shaklda yuzaga chiqaradi. Biroq bu relativizm lingvistik relativizm emas. Deluza tomonidan ilgari surilgan plyuralizm va monizm formulasi o'ziga xos giperempirizmni anglatadi. U metafizik loyiha sifatida barcha mumkin bo'lgan tajriba va konseptuallikning imkoniyat shartlarini tushuntira oladigan ontologiyani yaratishga urinadi. Deluza uchun reallik tugallanmagan va cheksiz ko'plikdan iboratdir [4;144-b.]. Shu sababli uni anglash va tajriba qilishning potensial ravishda cheksiz usullari mavjud. Ammo bu holat xato yoki illuziyalar mavjud emas degani emas. Aksincha, har qanday xato yoki illuziya empirik bo'ladimi yoki transsendental simulakrlar xaosi va muammolarning shakllanishi hamda yechilishida obyektiv asosga ega.

J.Derrida aynan shu Nitshe merosni davom ettiradi va dekonstruksiya metafizik tanlovlarning yolg'on alternativalaridan chiqish harakatidir deb tavsiflaydi. U reallikni til orqali mutlaq va shaffof tarzda ifodalash mumkin degan qarashni ham, tildan butunlay chiqib ketish mumkin degan qarashni ham rad etadi [5;72-b.]. Derrida uchun asosiy muammo haqiqat bor bo'lish metafizikasidir. G'arb falsafasi doimo mavjudlikni to'liq hozirlik, bevositalik va o'z-o'ziga shaffoflik sifatida tasavvur qilgan. Natijada mavjudlikning ochiqligi va differensiyasi ma'lum bir mavjudlik shakliga qisqartirilgan. Dekonstruksiya esa aynan ushbu reduksiyani tanqid qiladi. Shu sababli dekonstruksiya skeptitsizm yoki reallikning inkori emas. Aksincha, u reallikni tilning o'zga sifatida saqlab qolishga urinadi. Derrida insonning bilim va konseptual konstruksiyalari bilan insondan mustaqil mavjud reallik o'rtasidagi farqni saqlashga harakat qiladi. Dekonstruksiya reallikni til ichida mutlaq yo'qotmaydi aksincha, reallikni til bilan to'liq identifikatsiya qilishning oldini oladi. Shu ma'noda, dekonstruksiya irratsionalizm yoki relativizm emas, balki tilning dunyoni qanday murakkab va noaniq tarzda artikulyatsiya qilishini ochib beruvchi kritik loyiha sifatida namoyon bo'ladi. Derrida tilning paradoksal tabiatiga e'tibor qaratadi. Til bir vaqtning o'zida ham ma'no va haqiqatni yaratadi, ham ularni yemiradi. G'arb metafizikasining asosiy xatosi esa ma'noni yopiq va immanent tizim ichida to'liq ushlab qolish mumkin degan illuziyadir. Derrida uchun esa til har doim tashqi va differensial xarakterga ega bo'lib, interpretatsiya, tarqoqlik va noaniqlikni o'zida olib yuradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot jarayoni dekonstruktiv metod, diskursiv tahlil, germenevtik metod, poststrukturalistik yondashuv kabi metodologik asoslar orqali amalga oshirildi. Shuningdek, simulyatsiya va media realligi kabi tanqidiy metodlardan ham foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dekonstruksiya tushunchasi postmodernizmning eng mashhur va eng bahsli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakillanganligiu namoyom bo‘ldi. Ayniqsa u interkonektivlik, fragmentatsiya va giperrealik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilindi. Dekonstruksiya, ko‘pincha, ontologiya va metafizika diskurslariga qarshi chiqadigan, reallikni til va matn ichida eritib yuboradigan yondashuv sifatida tasvirlanadi. Shu sababli faylasuflar dekonstruksiyani antirealist yoki irrealist oqim sifatida talqin qilganlar. Derrida dekonstruksiyani skeptitsizm, relativizm yoki nigilizm bilan tenglashtirishni ham rad qiladi. Uning fikricha, agar dekonstruksiya haqiqat, ma’noni butunlay inkor etsa, unda u o‘z matnining to‘g‘ri o‘qilishini talab qila olmas edi [6;98-b.]. Demak, dekonstruksiya haqiqat tushunchasini yo‘q qilmaydi; u faqat uni kuchliroq va murakkabroq kontekstlar ichida qayta joylashtiradi. Shu ma’noda haqiqat va ma’no butunlay bekor qilinmaydi, balki ularning ishlash shakli qayta talqin qilinadi. Postmodernizm shunday davrki, unda odamlar haqiqat va reallikni endi aniq, universal va o‘zgarmas narsa deb ko‘ra olmay qoladi. M Fukoga ko‘ra, muhim savol reallik nima?emas, balki biz reallikni qanday tarixiy va diskursiv tizimlar orqali tushunyapmiz? degan savoldir [7;206-b.]. Ya’ni haqiqat ham tarix, til, hokimiyat va bilim tizimlari orqali quriladi. Lekin, bizning fikrimizcha, agar hamma narsani faqat til va diskursga bog‘lab yuborsak, unda real dunyo yo‘qolib ketadi. Natijada inson skeptitsizmga,nihilizmga yoki faqat “hamma narsani buzish” (dekonstruksiya) holatiga tushib qoladi. Shuning uchun, bizningcha, reallik mavjud, lekin uni eski modernistik usulda mutlaq, barqaror va universal shaklda tushunib bo‘lmaydi. Demak, klassik realizm yetarli emas, lekin to‘liq relativizm ham xavflidir. Postmodernizmning vazifasi faqat buzish emas, balki reallikni tushuntira oladigan yangi postmodern til va yangi realizm yaratishdir.

Derrida dekonstruksiya semantika, etika yoki siyosat nuqtai nazaridan relativizmga yoki indeterminizmga olib kelmasligi kerak. Bu esa dekonstruksiyani oddiy (hamma narsa nisbiy) degan postmodern qarashdan farqlaydi. Mazkur masalada Kristofer Norris dekonstruksiyani postmodern relativistik oqimning bir qismi sifatida emas, balki tilning imkoniyatlari va chegaralari haqidagi qat’iy va jiddiy tahlil sifatida talqin qiladi. Hatto u dekonstruksiyani kritik realizmning o‘ziga xos shakli sifatida ko‘rishga urinadi. Norrisning fikricha, dekonstruksiya realizmni rad etmaydi, balki realikni oddiy va bevosita mavjud deb tasavvur qilishga qarshi chiqadi. Ya’ni dekonstruksiya reallikni o‘z-o‘zidan ravshan, shaffof va to‘liq o‘zini namoyon qiluvchi narsa sifatida qabul qilmaydi. Shu sababli u har qanday transsendental mutlaq va yakuniy ma’no markazi g‘oyasini tanqid qiladi. Bu yondashuv postmodern realizmning murakkab shakliga olib keladi. Bunday realizm uchun reallik mavjud, biroq u hech qachon to‘liq va yakuniy tarzda taqdim etilmaydi. Reallik har doim til, tarix, interpretatsiya va differensiya orqali ochiladi. Shu sababli dekonstruksiya realizmni inkor etmaydi, u faqat modern metafizikaning qat’iy, markazlashgan va universalistik realizm shakllarini tanqid qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Postmodernizm masalasi modernlikdan keyin nima keladi degan fundamental savol bilan boshlanadi. Agar modernlikning mohiyati doimiy ravishda yangini yaratish va taraqqiyot g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, unda yangidan keyingi holatni qanday tushunish mumkinligi postmodern tafakkurning asosiy muammolaridan biriga aylanadi. Zamonaviy inson postmodern sharoitda modern bo‘lish tajribasini qanday boshdan kechirishi masalasi ham aynan shu kontekstda talqin qilinadi. Fredrik Jameson postmodernizmni tarixiy davr va madaniy dominant sifatida tushuntirishga urinadi. Garchi bunday yondashuv tarixiy jarayonni sun’iy ravishda bir chiziqli makonga aylantirish xavfini tug‘dirsada, Jameson postmodernizmni o‘zaro zid tendensiyalar va qarama-qarshi madaniy shakllarning birgalikda mavjud bo‘lishiga imkon beruvchi umumiy madaniy mantiq sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv postmodern sharoitda reallik tushunchasining ham tubdan o‘zgarishini anglatadi. Endilikda reallik yagona, barqaror va universal haqiqat sifatida emas, balki til, media, diskurs va mafkuraviy konstruktsiyalar orqali shakllanuvchi nisbiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, J.Derridaning dekonstruksiya konsepsiyasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Dekonstruksiya an’anaviy metafizik qarashlarni, xususan, “mutlaq markaz”, “barqaror ma’no” va “yakuniy haqiqat” haqidagi tasavvurlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqadi. Natijada postmodernizm reallikni tayyor va o‘zgarmas mavjudlik sifatida emas, balki doimiy ravishda qayta talqin qilinuvchi va diskursiv tarzda quriluvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Shu tariqa, postmodern tafakkur haqiqat, identiklik va reallikning dekonstruksiya qilinishi orqali zamonaviy madaniyatning pluralistik va fragmentar xarakterini ochib beradi. Xulosa qilib aytganda, postmodernizm modernlikning universal haqiqat, progress va barqaror identiklik haqidagi tasavvurlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqadi. Postmodernizm kapitalizmning madaniy mantig‘i sifatida tarixiylikning parchalanishi, vaqt va makonning suyuqlashuvi hamda subyektning fragmentatsiyasi bilan xarakterlanadi. Natijada reallik endilikda yagona va obyektiv haqiqat sifatida emas, balki media, diskurs, simulyakr va intertekstual aloqalar orqali quriluvchi nisbiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. J.Derridaning dekonstruksiya konsepsiyasi esa “mutlaq markaz”, “barqaror ma’no” va “yakuniy

haqiqat" haqidagi metafizik qarashlarni rad etib, haqiqatning doimiy ravishda qayta talqin qilinishini ko'rsatadi. Shu tariqa, postmodernizm modernlikning qat'iy va yaxlit tizimlariga qarshi plyuralizm, fragmentatsiya va diskursiv ko'plikka asoslangan yangi madaniy-falsafiy tafakkurni shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Lyotard J.F. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. Manchester, University Press. 1984, 141 p.

(2). Existentialism from Dostoyevsky to Sartre, ed. Walter Kaufman, Meridian Publishing Company, 1989, 95 p.

(3). Nietzsche F. On the Genealogy of Morality (trans. Carol Diethe). Cambridge, Cambridge University Press, 2006, 211 p.

(4). Deleuze G. and Parnet C. Dialogues II (trans. Hugh Tomlinson and Barbara Habberjam). New York, Columbia University Press. 2007, 144 p.

(5). Derrida J. Spurs: Nietzsche's Styles. Chicago, University of Chicago Press, 1979, 72 p.

(6). Derrida J. Writing and Difference. London, Routledge & Kegan Paul, 1978, 98-bet.

(7). Foucault M. Madness and Civilisation. London, Routledge, 1967, 206 c.

**G'afurov Doniyor Orifovich (Buxoro Innovatsiyalar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); gafurovdoniyor@gmail.com)**

## MAXDUMI A'ZAM DAHBEDIY TA'LIMOTIDA OILA FAROVONLIGI VA NIKOHNING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

***Annotatsiya.*** *Maqolada Naqshbandiya silsilasining yetakchi nazariyotchisi Xojagiy Ahmad Kosoniy Maxdumi A'zam Dahbediy (1461–1542) intellektual merosidagi oilaviy farovonlik paradigmasi va nikoh fenomenining konseptual tahlili amalga oshirilgan. Globallashuv, raqamli mediatizatsiya va aksiologik pluralizm sharoitida Maxdumi A'zam meroshunosligining O'zbekiston Respublikasi oila institutini mustahkamlash strategiyasidagi konseptual ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Maxdumi A'zam Dahbediy, Naqshbandiya silsilasi, oilaviy farovonlik paradigmasi, "Asror un-nikoh" risolasi.*

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ БЛАГОПОЛУЧИЯ СЕМЬИ И БРАКА В УЧЕНИИ МАХДУМИ АЗАМА ДАХБЕДИ

***Аннотация.*** *В статье осуществлен концептуальный анализ парадигмы семейного благополучия и феномена брака в интеллектуальном наследии ведущего теоретика семьи Накшбандия Ходджаги Ахмада Косани Махдуми Аъзама Дахбеди (1461–1542). Обоснована концептуальная значимость наследия Махдуми Аъзама в стратегии укрепления института семьи Республики Узбекистан в условиях глобализации, цифровой медиатизации и аксиологического плюрализма.*

***Ключевые слова:*** *Махдуми Аъзам Дахбеди, Накшбандия, парадигма семейного благополучия, трактат «Асрор ун-никах».*

## SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF FAMILY WELL-BEING AND MARRIAGE IN THE TEACHINGS OF MAKHDUMI A'ZAM DAHBEDI

***Annotation.*** *The article provides a conceptual analysis of the paradigm of family well-being and the phenomenon of marriage in the intellectual heritage of the leading theoretician of the Naqshbandi chain Khojagi Ahmad Kosani Makhdumi Azam Dahbedi (1461–1542). The conceptual significance of Makhdumi Azam's heritage in the strategy of strengthening the family institution of the Republic of Uzbekistan in the conditions of globalization, digital mediatization and axiological pluralism is substantiated.*

***Key words:*** *Makhdumi Azam Dahbedi, Naqshbandi chain, family well-being paradigm, "Asror un-nikah" treatise.*

**Kirish.** Sayyid Ahmad ibn Sayyid Mavlono Jaloluddin Xojagiy Kosoniy Maxdumi A'zam Dahbediy (1461–1542) Naqshbandiya silsilasining XV–XVI asrlardagi yetakchi nazariyotchisi va ta'limotni tizimli rivojlantirgan mutafakkir hisoblanadi. Uning "Maxdumi A'zam" nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy maktabi Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurida muhim o'rin egallab, silsilaning keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mutafakkirning o'ttizdan ortiq risolalaridan iborat merosida tasavvufiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy va oilaviy masalalar chuqur tahlil qilingan bo'lib, ular bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu qo'lyozmalar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Mazkur merosni zamonaviy oilashunoslik bilan uyg'unlashtirish, ayniqsa oila institutini mustahkamlashga qaratil-